BOSHLANG`ICH SINF O`QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA O`YIN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI

JO`RAYEVA RASHIDA
Namangan davlat pedagogika instituti
Ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi mutaxassisligа magistranti.
rashidaabdurahimova49@gmail.com
Jo`rayeva Turg`unoy
Namangan davlat pedagogika instituti,
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD).

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang`ich sinf o`qish savodxonligi darslarida o'yin texnologiyalaridan foydalanish usullari haqida nazariy qarashlar va ilmiy xulosalar aks etgan bo`lib, undan boshlang`ich sinf o`qituvchilari amaliy darslarda foydalanishlar mumkin. Qolaversa, boshlang`ich sinf o`qish savodxonligi darslarida PIRLS (xalqaro baholash tizimi)ning amaliyotga joriylanishining ijobiy tomonlar tahlilga tortilgan.*

***Kalit so`zlar:*** *o`qish savodxonligi, o`yin texnologiyalari, didaktik o`yinlar, interfaol metodlar, o`quv faoliyati, o`quv motivatsiyasi, kompetensiyaviy yondashuv, o`qish ko`nikmalari, matn bilan ishlash, tanqidiy fikrlash, ijodiy fikrlash, kommunikativ kompetensiya*

METHODS OF USING GAME TECHNOLOGIES IN PRIMARY LITERACY LESSONS

Abstract. *This article reflects theoretical views and scientific conclusions on the methods of using game technologies in primary literacy lessons, which can be used by primary teachers in practical lessons. In addition, the positive aspects of the implementation of PIRLS (international assessment system) in primary literacy lessons are analyzed.*

Keywords: *reading literacy, game technologies, didactic games, interactive methods, learning activities, learning motivation, competency-based approach, reading skills, working with text, critical thinking, creative thinking, communicative competence*

МЕТОДЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ ГРАМОТНОСТИ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

Аннотация. *В данной статье представлены теоретические взгляды и научные выводы о методах использования игровых технологий на уроках грамотности в начальной*

школе, которые могут быть использованы учителями начальной школы на практических занятиях. Кроме того, анализируются положительные аспекты внедрения PIRLS (международной системы оценки) на уроках грамотности в начальной школе.

Ключевые слова: *грамотность чтения, игровые технологии, дидактические игры, интерактивные методы, учебные мероприятия, мотивация к обучению, компетентностный подход, навыки чтения, работа с текстом, критическое мышление, творческое мышление, коммуникативная компетентность*

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimining asosiy maqsadi shaxsni mustaqil fikrlashga, axborotlarni tahlil qilishga va ulardan samarali foydalanishga qodir etib tarbiyalashdan iborat. Ushbu maqsadga erishishning eng muhim omili esa o'qish savodxonligi hisoblanadi. O'qish savodxonligi faqatgina matnni o'qish tezligi yoki texnikasini emas, balki o'qilgan ma`lumotni anglash, tahlil qilish, baholash va uni kundalik hayotda qo'llay olish qobiliyatini o'z ichiga oladi[1]. Mazkur ta'limiy maqsadlar nafaqat milliy pedagogika doirasida, balki global miqyosda ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, boshlang`ich sinf (4-sinf) o'quvchilarining matnni o`qish va tushunish darajasini aniqlashga qaratilgan PIRLS xalqaro baholash dasturi zamonaviy dunyoda o'qish savodxonligini yuksaltirish umumjahon ta`lim siyosatining ustuvor yo`nalisharidan biri ekanligini yaqqol tasdiqlaydi.

O`zbekiston Respublikasida boshlang`ich sinf o`quvchilarining o`qish savodxonligini oshirish va dars jarayonlarida o`yin texnologiyalaridan foydalanish masalasi mustahkam me`yoriy-huquqiy asosga ega. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-sonli "2022-2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risidagi[2] Farmonida boshlang`ich sinf yoshidanoq o`quvchilarda o`qishganisbatan kuchli motivatsiyani shakllantirish hamda ta`limga innovasion pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish ustuvor vazifa qilib belgilangan. Shuningdek, O`zbekistonning PIRLS xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etishi, boshlang`ich sinf o`qish darslarini faqatgina an`anaviy matn o'qish bilan cheklamay, xalqaro andozalarga mos didaktik va interaktiv o'yinlar orqali tashkil etishni taqozo qilmoqda.

Global miqyosda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni umumbashariy sivilizatsiya yutuqlari hamda zamonaviy axborot resurslari bilan integratsiyalashgan holda o'qitish, ushbu jarayonni o'qituvchi va o'quvchi hamkorligi tamoyili asosida tashkil etish boshlang„ich ta"limni modernizatsiya qilishning konseptual asosini

belgilaydi. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi talablariga javob beradigan raqobatbardosh kadrlarni shakllantirish uzluksiz ta'limning poydevori hisoblangan maktabgacha va boshlang'ich ta'lim sifatiga bevosita daxldordir. Mazkur bo'g'inda sifatli ta'limiy muhitni yaratish, o'quvchilarning interpretativ hamda kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantiruvchi innovatsion metod va vositalarni amaliyotga tatbiq etish ularni ijtimoiy hayotga adaptatsiya qilishning fundamental omili sanaladi.

Zamonaviy boshlang'ich ta'lim paradigmasida o'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirish metodikasi qat'iy empirik dalillar va ilmiy asoslangan didaktik ko„rsatmalarga tayanishni talab etadi. Bu jarayonda ta'limiy o'yinlar va ilg'or metodik yondashuvlar bo'lajak pedagoglarning adabiy ta'lim mazmuniga nisbatan mustaqil,ongli va kreativ yondashuvini shakllantiradi. Natijada, o'qituvchi nafaqat ilg'or pedagogik tajribalarni mexanik o'zlashtirish, balki o'z hamkasblarining kasbiy faoliyatini chuqur tahlil qilish, refleksiya yuritish hamda konstruktiv xulosalar chiqarish layoqatiga ega bo'ladi. Bu esa o'z navbatida sifatli ta'limni kafolatlaydi va o'quvchilar bilimiga ta'sir ko'rsatadi.

Boshlang'ich sinflar o'quvchilarining o'qishga bo'lgan qiziqishni uyg'otish va mustahkam bilim poydevorini yaratish davri hisoblanadi. Shu sababli, bu bosqichda o'qitish jarayonini tashkil etishga bo'lgan yondashuvni tubdan o'zgartirish, ya'ni an'anaviy metodlardan voz kechib, innovatsion metodlardan

keng foydalanish dolzarb vazifadir[3]

O'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish va amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir. Tanlangan mavzular o'quvchilarga kundalik hayot, mustaqillikni mustahkamlash va insoniy munosabatlar bo'yicha bilim va tarbiya berishni ta'minlaydi. Ularning ichida istiqlol, vatan, buyuk allomlar, ma'naviyat va tabiat haqidagi mavzulardan ko'zlangan maqsad o'quvchilarning o'zlikni anglash, istiqlol, vatan va tabiat bilan bog'liq tuyg'ularini uyg'otishdir[4].

METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida o'yin texnologiyalaridan foydalanish nazariy jihatdan juda olimlarning nazariyalariga asoslanadi. O'yin faoliyatining ta'limdagi o'rnini ilmiy hissasini asoslashda jahon pedagogikasining klassik namoyandalari muhim o'rin egallaydi. D.Dyuining ta'biricha, bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish jarayoni o'quvchilarning amaliy faoliyatlari natijasidagina samarali kechishi mumkin. O'quvchilarning muammolarni bartaraf etishlari uchun o'qituvchi o'quv rejasi bilan bog'liq holda qulay sharoitlar yaratishi kerak. Qo'yilgan muammolar esa o'quvchilarning tayanch bilimlari va yosh xususiyatlariga mos kelishi

lozim[5]. L.Vigotskiy tomonidan "yaqin zonasi" tomonidan o'quv jarayonida kattalar va tengdoshlar yordamida amalga oshirishga yordam beradigan o'qitish texnika vositalarini asoslab bergan. Vigotskiyning fikricha, o'yindan oldin real jarayondan bir qadam oldinda turuvchi vaziyat kuchli turtki bo'lib xizmat qiladi. J.Piajening konstruktivistik ta'limi esa bilimlarning tayyor holda emas, balki o'quvchining faol o'yin va muloqot jarayonida mustaqil ravnaq topib, kuchayib borishini isbotlab berdi.

O'zbekiston pedagogika fanida pedagogik texnologiyalar, xususan didaktik o'yinlar va innovatsion metodlardan foydalanish masalalari bo'yicha salmoqli tadqiqotlar olib borilgan. J.Yo„ldosh va S.Usmonovlarning "Pedagogik

[3] Isroilov, I. Boshlang'ich ta"limda o'qish savodxonligini rivojlantirish. Farg'ona: Farg'ona davlat universiteti. 2021

[4] Ona tilini o„qitish metodikasi-Toshkent 2023 Safo Matjon,Xolida Gulyamova,Hilola Bakiyeva 6-7-bet

[5] Jurayev B.T. Pedagogik va psixologik fanlarni o„qitish metodikasi. O„quv qo„llanma. "Fan va ta"lim". Buxoro-2022. 45-46-betlar.

texnologiya asoslari" asarida pedagogik texnologiyalarning tuzilishi, tasnifi va ta'lim jarayoniga tatbiq etish mexanizmlari chuqur yoritilgan. Mualliflar ularni ta'limning yaxlit tizimi sifatida ta"riflaydilar.

R.Ibragimov maktab o'quvchilarining bilish faoliyatini rivojlantirishda o„yin texnologiyalarining kognitiv ahamiyatini ta'kidlagan bo'lib, didaktik o'yinlar orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish imkoniyatlarini ko'rsatgan[6].

M.M.Abduraximova boshlang'ich sinf darslarida o'yin ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslarini tizimli tahlil qilgan[7]. Olimaning fikricha, o'yinchi faoliyatdan aqliy-o'quv faolligiga o'tish jarayonida o'yin texnologiyalari yetakchi rol o'ynaydi. Tadqiqotda didaktik o'yinlarga qo'yiladigan talablar (ta'limiy-tarbiyaviy maqsadlarga moslik, mantiqiy ketma-ketlik, didaktik printsiplarga rioya qilish) belgilangan hamda ularning o'quvchilarda o„rganish qiziqishini oshirish, kommunikativ madaniyat va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishdagi samaradorligi asoslab berilgan.

N.N.Yunus didaktik o'yinlar yordamida o'quvchilar bilimini baholash va bo'shliqlarni bartaraf etish masalalarini o'rgangan. "Zanjir o'yini", "Tez ayt" kabi o'yinlarning darsda qo'llanilishi o'quvchilarda tezkorlik, diqqatni jamlagan holda fikrlash va erkin mantiqiy faollikni shakllantirishini ko'rsatgan.

I.V.Xoldarova va F.M.Mamajonovalarning hamkor tadqiqotlarida o'qish savodxonligi darslarida innovatsion interfaol metodlar ("Aqliy hujum", "Klaster",

"Charxpalak", "Assesment" va boshqalar)ning samaradorligi tahlil qilingan. Mualliflar an‟anaviy va innovatsion yondashuvlarni qiyoslab, ikkinchisining o„quvchilarni mustaqil bilim izlash, tahlil qilish va bog'lanishli nutqni rivojlantirishdagi ustunligini isbotlaganlar.

Xorijiy adabiyotlarda ham mazkur masala keng o'rganilgan. A.P.Panfilova faol o'rganish metodlarining motivatsiyaga ta'sirini, V.A.Slastenin va L.S.Podimova o'qituvchining ijodiy rolini, N.M.Mochalova innovatsion va an'anaviy usullarni uyg'unlashtirishni, G.N.Ibragimova esa interfaol texnologiyalarning kreativlikni oshirishdagi ahamiyatini chuqur tadqiq etgan.

Shunday qilib, sohada nazariy va amaliy baza yetarli darajada shakllangan bo'lsa-da, bir qator muammolar mavjud. O'qish savodxonligi darslariga moslashtirilgan tizimli o'yin metodikasi kundan-kunga yangi ko'rinishlar va talablar kasb etmoqda. O 'quvchilarning yosh xususiyatlari va qobiliyatlari bugungi axborotlashgan davrda birmuncha o'ziga xoslikka ega bo'lib bormoqda. O'yin texnologiyalarini o'qish savodxonligi darslarida samarali qo'llashning nazariy-metodik asoslarini yanada takomillashtirishni maqsad qiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligi darslarida har bir mavzuning mazmuniy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tegishli o'yin texnologiyalarini qo'llash yuqori pedagogik samara beradi. O'quvchilar o'yin faoliyati jarayonida o'zlashtirgan bilim va ma'lumotlar ularning xotirasida yanada chuqur va mustahkam saqlanib qoladi, chunki o'yin orqali o'ganish emotsional jihatdan boyitilgan, faol va shaxsiy tajribaga asoslangan bo'ladi.

Xususan, 4-sinf "O'qish savodxonligi" darsligining 4-qismidagi 2-mavzu – "Manguga muhrlanganlar" nomini olgan bo'lib, unda buyuk ajdodimiz Amir Temur va uning tarixiy merosi haqida boy ma‟lumotlar va qimmatli materiallar keltirilgan. Ushbu mavzuni o'rganishda o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos ravishda tanlangan didaktik o'yinlar (masalan, rol o'yinlari, intellektual viktorinalar, "Zanjir o'yini", "Tarixiy portret" yoki interfaol loyihalar) orqali Amir Temurning hayoti, harbiy yurishlari, davlatboshqaruv faoliyati, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishdagi xizmatlari kabi muhim jihatlarni chuqur anglash va mustahkamlash imkoniyati yaratiladi.

Bunday yondashuv nafaqat o'quvchilarning mavzuga bo'lgan qiziqishini oshiradi, balki ularning vatanparvarlik tuyg'ularini, tarixiy ongini va milliy g'ururini tarbiyalashga ham xizmat qiladi. Natijada, o'yin texnologiyalari

yordamida o'quv jarayoni ham samarali, ham qiziqarli tus oladi. Ushbu usulni amaliyotga tatbiq etish orqali o'quvchilarning o'qish savodxonligi ko'nikmalarini

rivojlantirish bilan birga, tarixiy-ma'rifiy ta'limni ham yuqori darajada ta'minlash mumkin.

Boshlang'ich sinflarda, xususan 4-sinf "O'qish savodxonligi" darsligining 4-qismidagi "Manguga muhrlanganlar" mavzusini o'rganishda **"Tarixiy portret"** o'yinini qo'llash yuqori pedagogik samara beradi. Ushbu o'yin o'quvchilarni Amir Temur shaxsiyati va uning tarixiy merosini chuqurroq anglashga undaydi.


Sohibqiron bobom mening 2-mavzu

Amir Temur – Movarounnahrni mo'g'ullar istilosidan ozod qilib, o'lkada yagona markazlashgan davlat tuzgan buyuk sarkarda. U mamlakatda bunyodkorlik ishlariga katta e'tibor qaratib, qaysi yurtga borsa, o'sha yurtning eng yaxshi hunarmandlari va olimlarini Samarqandga olib kelgan. Ularning bilim va tajribasidan yurtni obodonlashtirishda foydalangan. O'zi obod qildirgan Shahrisabzdagi mashhur Oqsaroyning peshtoqidagi naqshlar orasiga "Agar bizning kuch-quvvat va qudratimizga shubha qilsang, bizning imoratlarimizga boq", degan xitobnoma yozdirgan. Dunyoga buyuk lashkarboshi va davlat arbobi sifatida tanilgan ajdodimizning janglardagi tajribasi hozir jahonning barcha harbiy akademiyalarida o'rganiladi.

O'yinni o'tkazishda avvalo o'qituvchi darslikdagi Amir Temur ot minib, lashkarlari va fillari bilan tasvirlangan rasmni namoyish etadi. O'quvchilar rasmni diqqat bilan kuzatib, sarkardaning tashqi ko'rinishi, kiyimi, jasoratli nigohi va atrofidagi muhitni tahlil qiladilar. Keyin o'quvchilar 3-4 kishilik guruhlarga bo'linib, bir necha vazifani bajaradilar. Birinchi

vazifada ular rasm asosida Amir Temurning tashqi portretini batafsil tasvirlab berishadi. Ikkinchi vazifada darslik matnidagi ma'lumotlardan foydalanib, uning ichki fazilatlari - donoligi, jasurligi, adolatliligi, ilm-fanga bo'lgan e'tibori va davlatboshqaruvdagi mahorati haqida "Tarixiy portret" tuzadilar. Uchinchi vazifada esa guruh a'zolari "Jonli portret" yaratib, biri Amir Temur rolini o'ynab, qolganlari uning sarkardalari sifatida sahna ko„rinishini namoyish etadilar.

O'yin yakunida har bir guruh o'z portretini sinf oldida taqdim etadi, savol-javob va muhokama tashkil qilinadi. Eng yaxshi ishlar rag'batlantiriladi.

Ushbu o‘yin o‘quvchilarning vizual idrokini, nutqini, ijodiy fikrlashini va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Amir Temur haqidagi ma’lumotlar o‘yin faoliyati orqali emotsional jihatdan boyitilgan holda o‘zlashtiriladi va xotirada mustahkam saqlanib qoladi. Natijada, o‘quvchilar nafaqat buyuk sarkarda haqida chuqur bilim egallaydilar, balki milliy g’urur va vatanparvarlik tuyg’ularini ham kuchaytiradilar.

“Tarixiy portret” o‘yini mavzuning mazmuniga to‘liq mos kelib, o‘qish savodxonligi darslarida o‘yin texnologiyalaridan samarali foydalanishning yorqin namunasi hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki,boshlang’ich sinf o‘quvchilarida o‘qish savodxonligini rivojlantirish masalasi ilmiy-metodik jihatdan yoritilgan.Tadqiqot davomida boshlang’ich ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik va interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishi hamda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi asoslangan.

Bizga ma’lum-ki har bir inson eshitganini emas,balki ko‘rganini yoki o‘sha jarayonda ishtirok etsagina yaxshi tushunadi va a’lo darajada his qiladi.Shunday ekan,o‘qituvchi har bir darsda o‘yin texnologiyalaridan o‘rinli foydalana olsa ko‘zlagan natijaga erishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-sonli “2022-2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni
2. Abduraximova, M. M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda o'yin ta'lim texnologiyasidan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari. Sovremennoe obrazovanie i issledovaniya. - 2024. - № 1, ch. 1. - S. 120-124.
3. Ibragimov, R. Boshlang'ich maktab o'quvchilarida bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari. Toshkent : Fan, 2001. - 112 b.
4. Isroilov, I. Boshlang‘ich ta’limda o‘qish savodxonligini rivojlantirish. Farg‘ona: Farg‘ona davlat universiteti. 2021.
5. Jurayev B.T. Pedagogik va psixologik fanlarni o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. “Fan va ta“lim”. Buxoro-2022. 45-46-betlar.
6. K. Qosimova, S. Matjonov, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva, Sh. Sariyev Ona tili o'qitish metodikasi / - Toshkent : Noshir, 2014. - 6-7-bet
7. Mochalova, N. M. Innovatsionnyye podkhody k organizatsii

metodicheskoy raboty shkoly : uchebnoye posobiye / N. M. Mochalova. - Ufa : BIRO, 2002. - 86 s.

8. Qodirov S. Boshlang'ich sinfda o'qish savodxonligini oshirish usullari. Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti. 2019

9. Yoldoshev, J. Pedagogik texnologiya asoslari / J. Yoldoshev, S. Usmonov. - Toshkent : O'qituvchi, 2004. - 144 b.

10. Umarjonovna, Jo'rayeva T. "O'zbek tilini o'qitish jarayonida talabalarning kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirish." Amerika pedagogik va ta'lim tadqiqotlari jurnali , 29-jild, 2024-yil 11-oktabr, 26-31-betlar.

11. Jo'rayeva, Turg'unoy. "O'zbek Tilini O'qitish Jarayonida Talabalarning Kommunikativ Kompetentligini Rivojlantirishning Innovatsion Metodik Asoslari." Maktabgacha va Maktab Ta'limi Jurnali, 2 Dec. 2025, doi:10.5281/zenodo.18043328.

12. https://indianjournals.com/article/aca-10-12-150